RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLARDA DAROMADLAR TENGSIZLIGINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	1154
<b>Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>	
MILLIY INNOVATSION TIZIMNI TRANSFORMATSIYALASHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	1162
<b>Azimov Bobir Fattoheevich</b>	
ANALYSIS OF FACTORS AFFECTING STARTUP DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AMONG THE YOUNG GENERATION .....	1169
<b>Usmonkhujayeva Nigina G'ofur qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA MUQOBIL ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1174
<b>Abdurazzoqov Hojiakbar Alisher o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON RAQAMLI BANK XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	1179
<b>Karimov Odiljon Boqiyevich</b>	
ЗАКОНОМЕРНОСТИ ПОВЕДЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ РЫНОЧНОГО СПРОСА.....	1185
<b>Камилова Наргиза Абдукажоровна</b>	
BUDJET TASHKILOTLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA ICHKI AUDITNING ROLI .....	1188
<b>Karimov Djaxongir Ganiboevich, Nasriev G'olibjon Muxiddinovich</b>	
YAPONIYADA IJTIMOIIY HIMOYA DASTURLARI VA IJTIMOIIY SUG'URTA TIZIMI .....	1193
<b>Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li</b>	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING KONSEPSIYASIGA O'TISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1197
<b>Bobomurodov Qayimjon Homidovich</b>	
ВЛИЯНИЕ ЦЕНОВОЙ КОНКУРЕНЦИИ НА УСТОЙЧИВОСТЬ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	1203
<b>Гойибназарова Нозимахон Хамзаевна</b>	
SUG'URTA TASHKILOTLARI DAROMADLARI VA ULARNING SOLIQQA TORTISH MEKANIZMI.....	1209
<b>Buranova Lola Vaxobovna, Yaxshillikov Murod</b>	
BUDJET MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA RAQAMLASHTIRISH VA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI .....	1215
<b>Ro'ziyeva Dilobar Isomjonovna, Muxtorov Muhammadyunus Muhammadyusuf o'g'li</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ РЫНКА ТРУДА.....	1222
<b>Камилова Наргиза Абдукажоровна</b>	



SIRKULAR IQTISODIYOTDA KO'P TOMONLAMA MANFAATDOR TOMONLAR HAMKORLIGINING YUTUQLARI .....	1226
<b>Sodiqov Zokir Rustamovich</b>	
O'ZBEKISTONDA SPORT TURIZMINI RIVOJLANISH HOLATI VA ASOSIY TENDENTSIYALARINING TAHLILI: TOG', SUV, VELO, EXTREMAL SPORT TURIZMLARI MISOLIDA .....	1233
<b>Kalandarov Jalol Abduljalilovich</b>	



# O'ZBEKISTONDA SPORT TURIZMINI RIVOJLANISH HOLATI VA ASOSIY TENDENTSIYALARINING TAHLILI: TOG', SUV, VELO, EXTREMAL SPORT TURIZMLARI MISOLIDA

**Kalandarov Jalol Abdujailovich**

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining  
tayanch doktranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda sport turizmining rivojlanish holati va asosiy tendensiyalari o'rganilgan. Tadqiqotda tog', suv, velo va ekstremal sport turizmi yo'nalishlarining dinamikasi makroiqtisodiy-statistik jihatdan integratsiyalashgan holda tahlil etilgan. Miqdoriy va sifat usullarining kombinatsiyasi asosida sport turizmi bo'yicha aholi o'rtasida so'rovnoma o'tkazilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, sport turizmi turistik xizmatlarning eksport salohiyatini oshirishda yuqori samaradorlikni ta'minlashi mumkin, biroq institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hali yetarli darajada shakllanmagan. Maqolada sport turizmining madaniy meros asosidagi afzalliklari va cheklovlari aniqlanib, davlat-xususiy hamkorlik modelini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. “O'zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq har yili 15 million sayyohni jalb etish maqsadi nuqtayi nazaridan ushbu tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yuqori hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** sport, turizm, tadbirkorlik, sport turizmi, innovatsion iqtisodiyot, metodologiya, iqtisodiy mexanizm, institutsional muhit, O'zbekiston, raqamlashtirish, barqaror turizm, davlat-xususiy hamkorlik, tog' sport turizmi, suv sport turizmi, velo sport turizmi, ekstremal sport turizmi.

**Abstract.** This article examines the current state of development and the main trends of sports tourism in Uzbekistan. The study provides an integrated macroeconomic and statistical analysis of the dynamics of mountain, water, cycling, and extreme sports tourism. Based on a combination of quantitative and qualitative methods, a survey on sports tourism was conducted among the population. The results indicate that sports tourism can significantly enhance the export potential of tourism services; however, institutional support mechanisms remain insufficiently developed. The article identifies the advantages and limitations of sports tourism based on cultural heritage and offers practical recommendations for improving the public-private partnership model. In the context of the goal of attracting 15 million tourists annually in accordance with the “Uzbekistan–2030” strategy, the practical significance of the findings of this research on sports tourism is considered to be high.

**Key words:** sport, tourism, entrepreneurship, sports tourism, innovative economy, methodology, economic mechanism, institutional environment, Uzbekistan, digitalization, sustainable tourism, public-private partnership, mountain sports tourism, water sports tourism, cycling tourism, extreme sports tourism.

**Аннотация.** В данной статье исследованы состояние развития и основные тенденции спортивного туризма в Узбекистане. В исследовании проведён интегрированный макроэкономический и статистический анализ динамики горного, водного, велосипедного и экстремального спортивного туризма. На основе сочетания количественных и качественных методов среди населения был проведён опрос по вопросам спортивного туризма. Результаты показывают, что спортивный туризм способен существенно повысить экспортный потенциал туристических услуг, однако механизмы институциональной поддержки пока ещё недостаточно развиты. В статье выявлены преимущества и ограничения спортивного туризма, основанные на культурном наследии, а также предложены практические рекомендации по совершенствованию модели государственно-частного партнёрства. В контексте цели привлечения 15 миллионов туристов ежегодно в соответствии со стратегией «Узбекистан – 2030» практическая значимость результатов данного исследования в области спортивного туризма является высокой.

**Ключевые слова:** спорт, туризм, предпринимательство, спортивный туризм, инновационная экономика, методология, экономический механизм, институциональная среда, Узбекистан, цифровизация, устойчивый туризм, государственно-частное партнёрство, горный спортивный туризм, водный спортивный туризм, велосипедный спортивный туризм, экстремальный спортивный туризм.



## KIRISH

Jahonda turizm sohasi barcha mamlakatlarda xizmatlar sektorining iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy omillardan biri bo'lib, iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Turizm mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lish bilan birga, davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy aloqalar rivojlanishini ta'minlovchi muhim tarmoq sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

UN Tourism ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda turizm sohasi qo'shimcha 27,4 million yangi ish o'rni yaratib, dunyo bo'yicha taxminan 348 million ish o'rnini ta'minlagan, dunyo bo'ylab 1,4 milliard xalqaro sayyoh qayd etilgan hamda turizmdan tushgan eksport daromadlari 1,9 trillion AQSh dollarini tashkil etgan. Shuningdek, turizmning yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi 2024-yilda 11,1 trillion AQSh dollariga yetib, jahon YaIMining qariyb 10 foizini tashkil etgan.

Jahonda turizm xizmatlari sifati ustuvor ahamiyat kasb etayotgan sharoitda, aholi turmush darajasi va salomatligini yaxshilash, dam olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq ehtiyojlar sport turizmi sohasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu jihatdan jahon miqyosida sport turizmi xizmatlarini rivojlantirish hamda uning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Stephen J. Page o'zining Tourism Management nomli monografiyasida sport turizmi bilan bog'liq g'oyalar va yondashuvlarni tahlil qilgan. Monografiyada sport turizmi turizm industriyasining alohida segmenti sifatida yoritilgan. Muallif fikriga ko'ra, turizm bozori ichida maxsus qiziqishlarga asoslangan turizm turlari tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va sport turizmi ular orasida eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Sport turizmi o'ziga xos bozor talabiga ega bo'lgan maxsus turizm turi bo'lib, u dam olish, ko'ngilocharlik va iqtisodiy motivatsiyalar bilan chambarchas bog'liqdir.

Stephen J. Page sport tadbirlarini, jumladan Olimpiada va jahon chempionatlarini, mezbon hudud iqtisodiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida e'tirof etadi. Bunda sport turizmi turistlar oqimini oshiruvchi omil sifatida mehmonxona, transport va savdo sohalarning rivojlanishiga turtki beradi, milliy turizm va turistik shaharlarga investitsion imkoniyatlarni kengaytiradi hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Monografiyada sport turizmi destinatsiyasi marketing bilan bevosita bog'liq ekani asoslab berilgan.

Joy Standeven va Paul De Knop tomonidan yozilgan Sport Tourism nomli darslik sport turizmi sohasidagi eng muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu darslik sport va turizmning o'zaro bog'liqligini tizimli ravishda tahlil qilgan dastlabki keng qamrovli ilmiy ishlanmalardan biridir. Darslikda sport turizmi iqtisodiy hodisa, ijtimoiy jarayon va rekreatsiyon faoliyat sifatida kompleks yondashuv asosida tadqiq etilgan.

Simon Hudson tomonidan yozilgan Sport and Adventure Tourism monografiyasi sport va sarguzasht turizmi sohasini iqtisodiy hamda marketing nuqtayi nazaridan tahlil qiluvchi muhim ilmiy-amaliy manba hisoblanadi. Monografiyada sport turizmi va sarguzasht turizmi bir-biri bilan chambarchas bog'liq yo'nalishlar sifatida ko'rib chiqilgan. Muallif sport turizmini zamonaviy turizm industriyasining tez rivojlanayotgan segmenti sifatida baholaydi.

Simon Hudson sport turizmini sport musobaqalarida ishtirok etish yoki ularni tomosha qilish maqsadida amalga oshiriladigan sayohat sifatida izohlaydi. Sarguzasht turizmi esa ekstremal va xavfli faoliyatlar orqali dam olish hamda yangi tajribalar orttirish bilan bog'liq yo'nalish sifatida tavsiflanadi.

Heather J. Gibson sport turizmi va rekreatsiya sohasida taniqli amerikalik olimlardan biri hisoblanadi. Uning Active Sport Tourism: Who Participates? nomli ma'ruzalar to'plamida sport turizmining ijtimoiy jihatlarini, motivatsion omillari, gender va oilaviy turizmdagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilingan. Heather J. Gibsonning ilmiy ishlari sport turizmi nazariyasini boyitishga xizmat qilgan bo'lib, u sport turizmini nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ham o'rganishni taklif etadi.

Mark Weed va Chris Bull tomonidan yozilgan Sports Tourism: Participants, Policy and Providers monografiyasida sport turizmi ilmiy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Mualliflar sport turizmini uch asosiy yo'nalish orqali o'rganadilar:

1. Ishtirokchilar yo'nalishida sport turizmida qatnashadigan fuqarolar, ya'ni professional sportchilar, havaskor sport ishqibozlari, tomoshabinlar va sayyohlar o'rganiladi. Ularning motivatsiyasi, sayohat qilish sabablari va xulq-atvori tahlil qilinadi.

2. Siyosat yo'nalishida davlat va tashkilotlarning sport turizmini rivojlantirishdagi roli, sport tadbirlarini tashkil etish siyosati, turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlar tahlil qilinadi.

3. Ta'minotchilar yo'nalishida esa sport turizmi xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilotlar, jumladan turizm agentliklari, sport klublari va federatsiyalar, mehmonxona hamda transport xizmatlari o'rganiladi.



Mualliflar sport turizmini nafaqat sayohat shakli, balki iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv jihatlarini bilan bog'liq murakkab tizim sifatida tavsiflaydilar.

Tom Hinch va James Higham tomonidan yozilgan Sport Tourism Development monografiyasi sport turizmini rivojlantirish jarayonlarini ilmiy asosda o'rganadigan muhim manbalardan biridir. Mualliflar sport turizmini barqaror rivojlanish, ekologiya va iqtisodiy omillar bilan bog'liq holda tahlil qiladilar. Monografiyada sport turizmining rivojlanish jarayoni, barqaror rivojlanish, iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlar, shuningdek, rejalashtirish va boshqaruv masalalari keng yoritilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, so'rovnoma, statistik ma'lumotlarni o'rganish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, sport turizmining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini baholash maqsadida miqdoriy va sifat usullarining kombinatsiyasi qo'llanildi. Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda soha bo'yicha ekspert fikrlari tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda sport turizmi so'nggi yillarda turizm sohasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlanib bormoqda. Davlat tomonidan turizmni qo'llab-quvvatlash, yangi infratuzilmalarni barpo etish va xalqaro turistlarni jalb qilish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-son Farmon "Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohasini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'g'risida"gi farmoni sport turizmini rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, sport-ta'lim muassasalari faoliyatining o'rta va uzoq muddatli istiqbollarini belgilash, olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, boshqaruv va moliyalashtirish tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi 2025-yilgacha sport-ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish dasturi qarori qabul qilingan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi 355-son qaror "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 13-fevraldagi 118-son qaror "2019–2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda 2019-yil 1-martdagi 184-son qaror "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sport turizmini rivojlantirishga muayyan darajada xizmat qilmoqda.

Shuningdek, PF-5611-son Farmon turizm sohasini, jumladan sport turizmini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. O'zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida esa turizmni global darajada rivojlantirish, milliy brendni shakllantirish, xorijiy turistlar soni va turizm xizmatlari eksportini oshirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan.

Tadqiqot natijalari sport turizmi bo'yicha xalqaro talabning saqlanib qolayotganini va turistik yo'nalishlarning jahon miqyosida ijobiy rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. 2023-yildagi kabi, Yevropa, Amerika va Yaqin Sharqning yirik manba bozorlari global turizm oqimlari va xarajatlarining o'sishiga xizmat qilmoqda.

Biroq, xalqaro turizmning barqaror rivojlanishiga iqtisodiy va geosiyosiy omillar ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Yuqori inflyatsiya, foiz stavkalarining oshishi, neft narxlarining o'zgaruvchanligi va savdo zanjirlaridagi uzilishlar 2026-yilda transport va turar joy xarajatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu sharoitda sayyohlarning iqtisodiy jihatdan samarali sayohat variantlariga ustuvorlik berishi, shuningdek, yashash hududiga yaqinroq yo'nalishlarni tanlash tendensiyasi kuchayishi kutilmoqda (1-jadval).


1-jadval. 2005–2024-yillar mobaynida jahon bo'yicha xalqaro turistik kirishlar statistikasi (mln) [9]

Yillar	Yevropa	Osiyo va Tinch okeani	Amerika	Yaqin Sharq	Afrika
2005	452,7	154,1	133,3	33,7	34,9
2006	475,7	166,7	136,8	37,3	39
2007	499,9	183,5	144,3	43,1	42,9
2008	503,3	186,1	148,3	51,7	44,3
2009	476,9	183,56	140,99	53,59	46,24
2010	494,18	207,93	151,82	68,36	50,53



2011	526,29	221,58	157,29	59,1	50,81
2012	546,95	237,79	163,7	59,25	52,53
2013	571,06	254,09	170,34	58,23	54,85
2014	582,23	269,57	183,31	61,1	55,15
2015	612,43	284,81	194,12	58,91	53,86
2016	622,27	307,01	201,43	57,26	58,17
2017	677,56	325,9	210,92	61,34	62,99
2018	717,69	348,68	215,88	65,26	67,54
2019	742,4	362,67	219,26	71,3	69,02
2020	239,44	58,95	69,73	19,36	18,83
2021	300,95	26,63	81,75	30,19	19,85
2022	609,46	93,33	157,15	67,77	46,97
2023	709,4	237,24	200,06	86,97	66,3
2024	743,3	315,86	213,47	94,84	73,6

2005-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda xalqaro turistik kirishlarning mintaqalar bo'yicha dinamikasi kuzatildi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, transport texnologiyalarining rivojlanishi va sayohat madaniyatining keng ommalashuvi natijasida asosiy mintaqalarda turistik kirishlar hajmi izchil o'sib borgan. 2020-yildagi pandemiya davrida xalqaro turizm oqimlarida keskin pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda turizm sektori bosqichma-bosqich tiklanib, ayniqsa, Yevropa va Osiyo mintaqalarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan. Mazkur jadval ma'lumotlarining diagramma ko'rinishi 2-rasmda aks ettirilgan.



2-rasm. 2005–2024-yillar davomida mintaqalar bo'yicha xalqaro turistlar kelishi (mln)[10]

2-rasmda keltirilgan mintaqalar bo'yicha xalqaro turistlar oqimi ko'rsatkichlarini tahlil qilish turizm sohasini kompleks rivojlantirish uchun muhim ilmiy-amaliy vosita hisoblanadi. Ushbu tahlillar turizmni rejalashtirishda ustuvor yo'nalishlarni aniqlash, infratuzilma va xizmatlar sifatini oshirish hamda turistlarning xatti-harakatlarini chuqur o'rganishga imkon beradi. Natijada, hududlar o'rtasidagi raqobatbardoshlik darajasi baholanib, xalqaro miqyosdagi ustunliklarni aniqlash orqali turizm sektoriga investitsiyalarni jalb etish va uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun zarur ilmiy asos yaratiladi. Shu tariqa, xalqaro turistlar oqimi ko'rsatkichlarini tahlil qilish hududlar uchun iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishni baholashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Sport turizmi turizm sohasining nisbatan tor, biroq yuqori darajada ixtisoslashgan segmenti bo'lib, u sport faoliyati bilan bog'liq sayohatlar, musobaqalar, mashg'ulotlar va sarguzasht elementlarini o'z ichiga oladi.



Mazkur segment quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

- tog' va alpinizm turizmi;
- chang'i va snoubord turizmi;
- suv sport turlari asosidagi turizm (rafting, kayaking, serfing);
- velosport va trekking asosidagi turizm;
- ekstremal sport va sport musobaqalariga tashrif bilan bog'liq turizm.

O'zbekistonda ham sport turizmi yo'nalishi so'nggi o'n yil davomida turizm sohasining e'tiborli va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlanib bormoqda. Ushbu holatni 2021–2025-yillar davomida O'zbekistonda tog' sport turizmining rivojlanish holati va dinamikasi tahlili ham tasdiqlaydi (2-jadval).

### 2-jadval. O'zbekistonda tog' sport turizmi rivojlanish holati va dinamikasi (2021–2025)<sup>1</sup>

№	Yillar	Tog' hududlariga sport tadbirlari tashrif buyurgan turistlar (ming nafar)	Xorjiy turistlar ulushi (%)	Tog' sport turizmidan tushgan daromad	Tog' sport turizmi asosiy faoliyat turlari
1	2021	180	15%	220	Treking , alpinizm
2	2022	240	18%	310	Treking , alpinizm, chang'i
3	2023	320	22%	420	Treking , chang'i, veloturizm
4	2024	410	25%	580	alpinizm, chang'i
5	2025	495	28%	750	Barcha turlar (extremal turizm)

2-jadval ma'lumotlarining makroiqtisodiy tahlili shuni ko'rsatadiki, pandemiyadan keyingi davrda, ayniqsa 2022–2023-yillarda tog' hududlariga sport tadbirlari uchun tashrif buyurgan turistlar soni sezilarli darajada oshgan. Eng yuqori o'sish sur'atlari esa 2024–2025-yillarga to'g'ri keladi. Xususan, 2025-yilda tog' hududlariga sport tadbirlari uchun tashrif buyurgan turistlar soni 495 ming nafarga yetgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, avvalgi yillarga nisbatan bunday yuqori o'sish sur'atlarining asosiy sabablari bir nechta omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, O'zbekiston hukumati tomonidan sport tadbirlarini qo'llab-quvvatlash va sport turizmini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim rol o'ynamoqda. Ikkinchidan, sport turizmini rivojlantirishda zamonaviy turizm infratuzilmasining takomillashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Amirsoy va Beldersoy kabi turistik destinatsiyalarda infratuzilmaning modernizatsiya qilinishi, yangi sport musobaqalari bazalarining qurilishi hamda tog' hududlarida joylashgan turistik zonalarning rivojlanishi sport turizmi salohiyatini oshirmoqda.

Shuningdek, Chimyon va Beldersoy hududlarida mehmonxonalar, kanat yo'llari va dam olish maskanlarining faol rivojlanishi ham sport turizmi uchun qulay sharoit yaratmoqda. Uchinchidan, so'nggi besh yil ichida O'zbekistonga tashrif buyuruvchi turistlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi xalqaro turistlar oqimini rag'batlantirdi. To'rtinchidan, xalqaro turizm marketingida O'zbekistonning turizm salohiyatiga bo'lgan qiziqishning yil sayin ortib borayotgani ham sport turizmi rivojlanishining muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda (3-jadval).

### 3-jadval. O'zbekistonda suv sport turizmining rivojlanish ko'rsatkichlari (2021–2025)<sup>2</sup>

№	Yillar	O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar (ming nafar)	Suv sport turizmining ulushi (%)	Suv sport turizmida ishtirok etgan turistlar soni (birlikda ming nafar)	Suv sport turizmi asosiy faoliyat turlari
1	2021	2.1	1.0%	20	rafting, qayiq,
2	2022	5.2	1.2%	62	rafting, qayiq,
3	2023	7.3	1.5%	105	rafting, qayiq,
4	2024	8.1	2.0%	160	rafting, qayiq,
5	2025	11.7	2.5%	290	rafting, qayiq,

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



3-jadval ma'lumotlarining makroiqtisodiy tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillar davomida O'zbekistonda suv sport turizmi qariyb 15 barobarga oshgan. Suv sport turizmi O'zbekistonda nisbatan yangi va istiqbolli yo'nalish bo'lib, ichki turizm bozorining kichik, biroq tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri hisoblanadi.

Suv sport turizmining asosiy faoliyat turlarini rafting va qayiqda suzish tashkil etadi. Mazkur sport turizmi yo'nalishining jadal rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, suv sportini rivojlantirish uchun zamonaviy texnika, maxsus jihozlar va transport vositalari bilan ta'minlanish darajasining oshishi ushbu yo'nalishning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, suv havzalari atrofidagi turistik infratuzilmaning yaxshilanayotgani, faol dam olishga bo'lgan qiziqishning ortishi hamda yoshlar o'rtasida ekstremal va sarguzasht turizm turlariga talabning kuchayishi suv sport turizmining kelgusida yanada keng rivojlanishiga zamin yaratmoqda (4-jadval).

#### 4-jadval. O'zbekistonda velosport turizmining rivojlanish ko'rsatkichlari (2021–2025)<sup>3</sup>

№	Yillar	O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar (ming nafar)	Velo sport turizmining ulushi (%)	Velosport turizmida ishtirok etgan turistlar soni (birlikda nafar)	Velosport turizmi asosiy faoliyat turlarini rivojlanishiga izohlar
1	2021	2.1	1.0%	3 0000	Pilot turlarning shakllanishi
2	2022	5.2	1.2%	5 5000	Velosiped va ekskursiya marshrutlari ommalashdi
3	2023	7.3	1.5%	115000	Turizm infratuzilmasi rivojlandi
4	2024	8.1	2.0%	160 000	Professional va amator velomusobaqalar paydo bo'ldi
5	2025	11.7	2.5%	250 000	Velosport turizmi mamlakatning sport yo'nalishlari bilan integratsiya qilindi

4-jadvalning statistik ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda velosport turizmi 2021–2025-yillar davomida sezilarli darajada rivojlangan. Xususan, velosport turizmida ishtirok etgan turistlar soni 30 ming nafardan 250 ming nafargacha oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich keyingi besh yil ichida qariyb 8,3 barobarga ko'payganini anglatadi.

Mamlakatimizda velosport turizmining rivojlanishi, asosan, Toshkent, Samarqand va Farg'ona vodiysidagi turistik yo'nalishlar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu hududlarda velosiped yo'laklari, ekologik marshrutlar va faol dam olish imkoniyatlari bosqichma-bosqich kengayib bormoqda.

Shuningdek, Tashkent City Women Professional Cycling Teamning tashkil etilishi velosportni ommalashtirish va veloturizmni ekologik yo'nalishlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Mazkur holat velosport turizmi nafaqat sport faoliyati, balki barqaror turizm va ekologik transport tizimini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi (5-jadval).

#### 5-jadval. O'zbekistonda ekstremal turizmining rivojlanish ko'rsatkichlari (2021–2025)<sup>4</sup>

№	Yillar	O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar (ming nafar)	external sport turizmining ulushi (%)	external turizmida ishtirok etgan turistlar soni (birlikda nafar)	extremal turizmi asosiy faoliyat turlariga izohlar
1	2021	2.1	0,2	3 000	<b>Skydiving (parashyut bilan sakrash)</b> – samolyotdan erkin tushish
2	2022	5.2	0,6	3 500	<b>Rafting</b> – tez oqimli daryolarda qayiqda suzishklublari va ekskursiya marshrutlari ommalashdi
3	2023	7.3	0,9	6 000	<b>Snowboarding / Freeride skiing</b> – qorli tog'larda xavfli uchishrivojlandi

3 Muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi



4	2024	8.1	1,4	12 000	<b>Paragliding</b> – tog'lardan parashyut bilan uchish musobaqalar paydo bo'ldi
5	2025	11.7	1,5	18 000	<b>Desert safari (qum sahro safari)</b> – sahroda yuqori tezlikda avtomobil haydash <b>Caving (speleoturizm)</b> – g'orlarni o'rganish <b>Zip-lining</b> – baland joylardan sim orqali tez harakatlanish shakllandi

O'zbekistonda ekstremal turizmning rivojlanish ko'rsatkichlari 2021–2025-yillar davomida barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Shu bilan birga, respublikada xalqaro va mahalliy sport musobaqalarining tashkil etilishi sport turizmining, jumladan ekstremal turizmning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur yo'nalishlarning barchasi sport turizmi subyektlaridan yuqori darajadagi tashkiliy salohiyat, moliyaviy resurslar va professional boshqaruvni talab etadi. Shu jihatdan sport turizmi turizm sohasining innovatsion laboratoriyasi sifatida qaralishi mumkin.

Sport turizmi faoliyatining iqtisodiy mohiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- yuqori qo'shimcha qiymatga ega turistik xizmatlarni ishlab chiqish va ularning turlarini kengaytirish;
- mahalliy resurslardan, jumladan tabiiy landshaft, iqlim va sport infratuzilmasidan samarali foydalanish;
- yangi ish o'rinlari yaratish, hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy aholi daromadlarini oshirish;
- turizm xizmatlari eksportini rivojlantirish.

Sport turizmi faoliyatining iqtisodiy mexanizmlari murakkab va ko'p bosqichli tizimni tashkil etadi. Sport turizmi obyektlari — sport bazalari, tog'-chang'i kurortlari va suv sport markazlari — katta hajmdagi boshlang'ich investitsiyalarni talab qiladi. Tadbirkorlik subyektlari ushbu investitsiyalarni qoplash va barqaror foyda olish uchun uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishga intiladi.

Sport turizmi xizmatlarida narxlar ko'pincha mavsumiylik, xavfsizlik darajasi va xizmatning noyobligi bilan belgilanadi. Bu holat sport turizmi subyektlaridan moslashuvchan narx siyosatini talab etadi. Shuningdek, sport turizmida tabiiy, texnik va inson omillari bilan bog'liq risklar yuqori bo'lgani sababli, sug'urta, sertifikatlash va standartlashtirish tadbirkorlik faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Sport faoliyatining ommalashuvi jismoniy faollik darajasini oshiradi, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantiradi hamda ijtimoiy xulq-atvor madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan sport turizmi nafaqat iqtisodiy sektor, balki ijtimoiy rivojlanishning muhim omili sifatida ham baholanadi.

Sport turizmi hududiy infratuzilmani rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Sport obyektlari, stadionlar, chang'i markazlari, veloyo'llar, sport majmualari va rekreatsion zonalar qurilishi transport, kommunikatsiya, mehmonxona va servis tizimining modernizatsiyasini talab qiladi. Bu esa hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi va turizm destinatsiyalarining raqobatbardoshligini oshiradi (6-jadval).

#### 6-jadval. Sport turizmining ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri<sup>5</sup>

Ta'sir sohasi	Ta'sir mexanizmi	Natija
Iqtisodiy	turist xarajatlari oshadi	hududiy daromad ortadi
Bandlik	yangi xizmat kasblari	ish o'rinlari ko'payadi
Infratuzilma	sport obyektlari qurilishi	hudud jozibadorligi ortadi
Ijtimoiy	sog'lom turmush targ'ibi	aholi salomatligi yaxshilanadi
Investitsiya	sport markazlari rivoji	kapital oqimi kuchayadi

Turizm sohasida samaradorlikni oshirishda sport turizmidan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish amaliy boshqaruv qarorlarini — investitsiya, infratuzilma, marketing, kadrlar siyosati, xavfsizlik va servis masalalarini — dalillarga asoslangan holda shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki sport turizmi ko'pincha "faol dam olish" shakli sifatida baholansa-da, u amalda turizm sohasida daromadlarni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, mavsumiylikni kamaytirish, bandlikni kengaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilashga bevosita ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy mexanizm hisoblanadi.

Tadqiqot tahlillaridan kelib chiqib, mamlakatda sport turizmini rivojlantirishda infratuzilmaning ahamiyati juda yuqori ekanligi aniqlandi. O'zbekistonda bu sohada muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ayrim

5 Muallif ishlanmasi.



rivojlantirish imkoniyatlari ham mavjud. Sport turizmi infratuzilmasining asosiy elementlarini transport tizimi, mehmonxonalar va turistik bazalar, sport inshootlari, gid va instruktorlar xizmati tashkil etadi. So'nggi yillarda yo'llarning ta'mirlanishi, yangi mehmonxonalar qurilishi va turistik xizmatlar sifatining yaxshilanishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, quyidagi yo'nalishlarda qo'shimcha ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- tog'li hududlarda sport turizmi uchun transport imkoniyatlarini kengaytirish;
- ayrim turistik hududlarda zamonaviy sport turizmi infratuzilmasini rivojlantirish;
- sport turizmi bo'yicha marketing va reklama ishlarini faollashtirish;
- O'zbekistonning sport turizmi salohiyatini xalqaro bozorda kengroq targ'ib qilish;
- malakali instruktorlar va gidlar tayyorlash tizimini kuchaytirish;
- sport turizmi sohasiga xususiy sektor investitsiyalarini kengroq jalb etish;
- zamonaviy sport uskunalari bilan ta'minlashni yaxshilash;
- xalqaro standartlarga mos sport turizmi xizmatlarini keng joriy etish.

Tadqiqot jarayonida turistlar va mahalliy aholi o'rtasida so'rovnomada sport turizmiga bo'lgan qiziqish darajasi, eng talabgir yo'nalishlar, infratuzilma sifatiga berilgan baholar va xizmatlardan qoniqish darajasi o'rganildi.

So'rovnomada natijalari tahliliga ko'ra:

- respondentlarning katta qismi (60–70 foizi) sport turizmiga qiziqish bildirgan;
- eng ommabop yo'nalishlar sifatida tog' turizmi va veloturizm qayd etilgan;
- ishtirokchilarning qariyb 50 foizi infratuzilma holatini o'rtacha darajada baholagan;
- turistik xizmatlar sifati bo'yicha qoniqish darajasi ham o'rtacha ekanligi aniqlangan.

Mazkur natijalar O'zbekistonda sport turizmini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini va ushbu yo'nalishda infratuzilma, servis hamda marketing mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Ushbu tadqiqot natijasida O'zbekistonda sport turizmining rivojlanish holati va asosiy tendensiyalari tahlil qilindi. Jumladan, Amirsoy, Beldersoy, Chimyon, Tashkent City hamda Quvasoy kabi sport turizmi destinatsiyalari misolida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi.

Birinchiidan, sport turizmining xarajat tarkibi keng qamrovli bo'lib, transport, joylashtirish va ovqatlanishdan tashqari inventar, ijara, instruktor xizmatlari, tadbir chiptalari, sug'urta, transfer va servis paketlarini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, sport turizmi segmentida daromad marjinalligi, xizmatlar qiymat zanjiri va mijozning umrbod qiymati kabi ko'rsatkichlarni ilmiy asosda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchiidan, sport turizmi samarali hamkorlikni talab qiladi. Federatsiyalar, sport klublari, tur operatorlari, mehmonxonalar, transport, tibbiy xizmatlar, sug'urta tizimi, mahalliy hokimliklar va xavfsizlik xizmatlari o'rtasidagi uzviy hamkorlik "klaster effekti"ni shakllantirib, muhim raqobat ustunligini yuzaga keltiradi. Ushbu ustunlik samarali metodologik yondashuvlar orqali yanada mustahkamlanishi mumkin.

Uchinchiidan, sport turizmi infratuzilmaga tayangan holda rivojlanadi. Stadionlar, sport majmualari, chang'i trassalari, veloyo'llar, suv sporti bazalari va marafon yo'laklari kabi obyektlarning iqtisodiy qaytimi an'anaviy turizm infratuzilmasidan farq qiladi. Shu sababli, investitsiya samaradorligi, foydalanish koeffitsienti va servis daromadlari ulushi kabi parametrlarni ilmiy asosda hisoblash muhimdir. Kelgusida sport turizmi siyosatida turizm salohiyati va jozibadorligini oshirish maqsadida xalqaro turizm marketingining ijobiy imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim.

Amaliy tavsiyalar:

Davlat siyosati nuqtayi nazaridan quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Sport turizmi infratuzilmasini rivojlantirish, ayniqsa tog'li hududlarda zamonaviy sport-turistik bazalarni barpo etish, transport va yo'l tizimini takomillashtirish hamda turizm korxonalarini uchun subsidiyalashtirilgan dasturlarni joriy etish.

2. Sport turizmi marketingini rivojlantirish, xalqaro bozorlarda reklama kampaniyalarini kuchaytirish va ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot ishlarini kengaytirish.

3. O'zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida sport turizmi ulushi bo'yicha alohida maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash.

Xususiy sektor va tadbirkorlar uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga, jumladan UNESCOning Living Heritage va Sustainable Tourism dasturlariga mos loyihalarga investitsiya kiritish.

2. Maxsus o'quv kurslarini tashkil etish, gid va instruktorlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish hamda onlayn bron qilish tizimlari, raqamli xaritalar va mobil ilovalarni joriy etish.

3. Ekstremal va suv sporti turizmi xavfsizligini ta'minlash, standartlar va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. UN Tourism. Jahon turizm barometri. – 2024. – URL: <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>
2. World Travel & Tourism Council. Economic Impact Research. – 2024. – URL: <https://wtcc.org/research/economic-impact>
3. Tourism Management / Stephen J. Page. – Routledge, 2015.
4. Sport Tourism / Joy Standeven, Paul De Knop. – Oxford [England]; Burlington, MA: Elsevier/Butterworth-Heinemann, 2004.
5. Sport and Adventure Tourism / Simon Hudson. – 2003. – 324 p.
6. Heather J. Gibson. Active Sport Tourism: Who Participates? // Leisure Studies. – 1998. – Vol. 17, No. 2. – P. 155–170.
7. Sports Tourism: Participants, Policy and Providers / Mark Weed, Chris Bull. – Routledge, 2009. – 351 p.
8. Sport Tourism Development / Tom Hinch, James Higham. – 2nd ed. – Channel View Publications, 2012.
9. Statista. International Tourist Arrivals Worldwide by Region Since 2010. – URL: <https://www.statista.com/statistics/186743/international-tourist-arrivals-worldwide-by-region-since-2010/>
10. UN Tourism. Tourism Highlights. – 2024 Edition. – Madrid, 2024.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>